

OG‘ZAKI DISKURSNING FUNKSIONAL-FORMAL XUSUSIYATLARI

*Raximova Laylo Muminbayevna, Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

FUNCTIONAL-FORMAL OF ORAL DISCOURSE CHARACTERISTICS

*Rakhimova Laila Muminbaevna, independent researcher of
Urganch State University*

ФУНКЦИОНАЛЬНО-ФОРМАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВЕРБАЛЬНОГО ДИСКУРСА

*Рахимова Лейла Муминбаевна, независимый исследователь
Ургенчского государственного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolada og‘zaki diskursning funksional-formal xususiyatlari, ya’ni u tilning og‘zaki shaklida yuzaga keladigan, uning ijtimoiy va kommunikativ funksiyalarini ta’minlovchi strukturaviy hamda formal jihatlardan tashkil topganligi xususidagi fikrlar ochib berilgan. Bu borada tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, tilning dinamik va interaktiv xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilganligi haqidagi mulohazalar ham maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki diskurs, funksional-formal xususiyatlar, kognitiv funktsiya, kommunikativ maxfiylik, gender, muloqot, interaktiv.

Abstract: This article explores the functional-formal characteristics of oral discourse, that is, the structural and formal aspects that occur in the oral form of language and ensure its social and communicative functions. The article also reflects the research conducted by linguists in this regard, especially those focused on the in-depth analysis of the dynamic and interactive features of language.

Key words: verbal discourse, functional-formal features, cognitive function, communicative confidentiality, gender, communication, interactive.

Аннотация: В данной статье раскрываются функционально-формальные характеристики устного



<https://orcid.org/0000-0002-7120-839X>

e-mail:

rahimovasoliha6@gmail.com

дискурса, т.е. то, что он состоит из структурных и формальных аспектов, которые встречаются в устной форме языка и обеспечивают его социальные и коммуникативные функции. В связи с этим в статье также отражены исследования, проведенные лингвистами, особенно замечания об углубленном анализе динамических и интерактивных особенностей языка.

Ключевые слова: устный дискурс, функционально-формальные особенности, когнитивная функция, коммуникативная приватность, гендер, общение, интерактив.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Og‘zaki yoki yozma shaklda tabiiy ravishda bog‘langan jumalarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Umumiy tilshunoslik jumlagi yo‘naltirilgan tahlilga e‘tibor qaratdi. Endi tilshunoslar tilning tarkibiy qismlaridan ko‘ra ishlatilishi bilan ko‘proq shug‘ullanmoqdalar. Bu borada og‘zaki diskursning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Og‘zaki diskursning eng muhim ajralib turadigan xususiyati uning tayyorlanmaganligidir; og‘zaki nutq qoida tariqasida suhbat davomida yuzaga keladi. Biroq tayyorlanmaganlik darajasi farq qilishi mumkin. Bu ilgari noma‘lum mavzudagi improvizatsiya sifatida olib borilgan nutq bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan bu oldindan ma‘lum bo‘lgan mavzu bo‘yicha u yoki boshqa qismda ko‘rib chiqilgan nutq bo‘lishi mumkin.

Og‘zaki diskursning funksional-formal xususiyatlari ham chog‘ishtirma tilshunoslikda o‘rganilishi zarur masalalardandir.

Og‘zaki diskursning funksional-formal xususiyatlari – bu tilning og‘zaki shaklida yuzaga keladigan, uning ijtimoiy va kommunikativ funksiyalarini ta‘minlovchi strukturaviy hamda formal jihatlardan iborat. Bu borada tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, tilning dinamik va interaktiv xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Og‘zaki diskursning funksional-formal xususiyatlari masalasida olimlarning fikrlari va yondashuvlari og‘zaki nutqning ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatlarini o‘rganishga asoslanadi. Quyida ba‘zi taniqli

tilshunoslarning fikrlarini va yondashuvlarini keltiramiz.

Lev Vygotskiy og‘zaki diskursning kognitiv funksiyasi haqida juda muhim nazariyalar ishlab chiqqan. U og‘zaki muloqotni bolalarning rivojlanishida, fikrlash jarayonining asosiy vositasi sifatida ko‘rgan. Vygotskiyning fikriga ko‘ra, og‘zaki muloqot orqali insonlar o‘z fikrlarini hosil etadilar va ularni boshqalar bilan almashadilar. Bunday muloqotda “ichki nutq” va “tashqi nutq” o‘rtasidagi bog‘liqlik kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, bolalar o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashga o‘rganayotganda, ular o‘z nutqini boshqarishni va ijtimoiy muloqotni o‘zlashtirishni boshlaydilar¹[1].

Grice og‘zaki diskursda “kommunikativ maxfiylik” (conversational implicature) tushunchasini kiritgan. Unga ko‘ra, suhbatda so‘zlashuvchilar faqatgina bevosita ma‘lumotlarni emas, balki o‘zaro anglashuv va taxminlar orqali bo‘lgan ma‘nolarni ham tushunadilar. Grice kommunikativ maxfiylikni o‘zining maxsus tartibotlar (Grice’s maxims) orqali izohlaydi, bu tartibotlar:

- konkretlik (relevance);
- aniqlik (quantity);
- sodda ifoda (Manner);
- to‘g‘rilik (Quality)²[2].

Gricening nazariyasiga ko‘ra, og‘zaki nutqda so‘zlashuvchilar ko‘p hollarda maxfiy ma‘no va niyatlarni ifodalaydilar. Misol uchun, biror kishining: “Siz hali nonushta qilmadingizmi?” degan savol orqali, u boshqa kishi to‘g‘risida qayg‘urayotganini yoki uni nonushta qilishga undashini tushunish mumkin.

Erving Goffman “face theory”ni ishlab chiqdi, u og‘zaki muloqotni ijtimoiy va psixologik jihatdan tahlil qiladi. Goffman nazariyasiga ko‘ra, og‘zaki muloqotda shaxslarning “tashqi ko‘rinishini

¹ Vygotsky, L. S. Umstvennoe razvitiye detey v protsesse obucheniya. -Moscow, Leningrad: Uchpedgiz, 1935.

² Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole, & J. Morgan (Eds.), Syntax and semantics (pp. 41-58). New York: Academic Press.

himoya qilish” muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda so‘zlashuvchilar o‘zining ijtimoiy obro‘cini, hurmatini saqlashga harakat qiladilar. “Face” (yuz) – bu so‘zlashuvchining jamiyatdagi ijtimoiy obro‘si va u bilan bog‘liq ijtimoiy roli. Suhbatda, odatda, so‘zlashuvchilar bir-birlarining “yuzini himoya qilish”ga intilishadi, ya’ni boshqa kishining obro‘cini yoki shaxsiyatini hurmat qilishni ko‘zda tutadilar. Goffman shuni ta’kidlaydi, agar bu “yuz”ni saqlashga tahdid bo‘lsa (masalan, tanqid yoki haqorat bilan), bu muloqotda “face-threatening acts” (FTA) deb ataladi³[3].

Deborah Tannen og‘zaki diskursning gender bilan bog‘liq xususiyatlariga alohida e’tibor bergan. U og‘zaki muloqotda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilgan. Tannenning fikriga ko‘ra, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi kommunikativ yondashuvlar farq qiladi. Erkaklar ko‘pincha muloqotda ma’lumot almashishni, muhokama qilishni va muammolarni hal qilishni afzal ko‘rishadi, ayollar esa o‘zaro aloqada hissiy bog‘lanishni, qo‘llab-quvvatlashni va so‘zlashuv orqali empatiya ko‘rsatishni maqsad qiladilar. Shuningdek, Tannen ayollarning og‘zaki nutqda ko‘proq “emotsional” va “ta’sirchan” uslublarni qo‘llashlarini ta’kidlaydi, erkaklar esa ko‘proq “raqobatbardosh” va “avtoritar” uslubda so‘zlashadi⁴[4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Og‘zaki diskursning ijtimoiy jihatlarini bo‘yicha so‘nggi yillarda sotsiolingvistika sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Labov va boshqa sotsiolingvistlar og‘zaki nutqni ijtimoiy kontekstda o‘rganishning muhimligini ta’kidlaydilar⁵ [5]. Labov, masalan, sotsiolekt (ijtimoiy guruh tili) tushunchasini kiritgan bo‘lib, bu tilning ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, og‘zaki diskursda tilni ishlatish usuli ijtimoiy holatga, guruhning darajasi va o‘zaro aloqaga qarab o‘zgaradi. Masalan, ish joyida rasmiy va norasmiy tilni tanlash, yoshlar orasidagi sleng va turli jamoalarning maxsus ifodalari, o‘zgaruvchan til

strukturalari – bularning hammasi tilni ijtimoiy omillar asosida shakllanishi va ishlatilishi jarayonlarini ko‘rsatadi.

Noam Chomsky tilni sintaktik va semantik jihatdan o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. Chomsky og‘zaki nutqning sintaktik xususiyatlarini o‘zining generativ grammatika nazariyasi orqali izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, og‘zaki muloqotda so‘zlashuvchilar nutqni spontan tarzda yaratadilar, ammo bu jarayonning ma’lum bir sintaktik qoidalari mavjud. Chomsky og‘zaki diskursda tilning tabiiy grammatik tuzilishi, jumlar tuzishning umumiy qoidalari, shuningdek, nutqning avtomatik tarzda shakllanishi va tezda yangi ma’nolarni yaratish imkonini berishini ta’kidlaydi⁶[6].

Michael Halliday og‘zaki diskursni “funktional tilshunoslik” nuqtayi nazaridan o‘rgangan. U tilning kommunikativ funksiyasini, ya’ni tilning qanday qilib turli vazifalarni bajarishini tahlil qilgan. Hallidayning “funktional grammatikasi” tilning ma’lum bir maqsadga (masalan, ijtimoiy, hissiy, ma’lumot berish va h.k.) xizmat qilishini izohlaydi⁷[7]. Og‘zaki muloqotda til faqat ma’lumot yetkazish emas, balki ijtimoiy aloqani rivojlantirish, hissiyotlarni ifodalash, so‘zlashuvchilar orasida munosabatlarni shakllantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Og‘zaki diskurs tilning interaktiv, bevosita va o‘zaro ta’sirga asoslangan xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Uning ba’zi asosiy funksional-formal xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. *Improvizatsiya va moslashuvchanlik.* Og‘zaki muloqotda ma’lumotlar ko‘pincha oldindan rejalashtirilmagan tarzda beriladi. Nutq davomida tezda fikrlar o‘zgarishi, so‘zlashuvchilar orasida tezkor ravishda yangi fikrlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu xususiyat og‘zaki nutqni yozma nutqdan ajratib turadi.
2. *Boshqaruv va intonatsiya.* Og‘zaki diskursda intonatsiya, ohang, pauzalar va boshqa tovushli

³ Erving Goffman. The Presentation of Self in Everyday Life. Knopf Doubleday Publishing Group, 1959. – 272 p.

⁴ Deborah Tannen, You just don't understand: Women and men in conversation. New York: William Morrow & Co., 1990. Pp. 330.

⁵ William Labov, Sociolinguistic patterns. (Conduct and Communication, 4.) Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.

⁶ Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. M.I.T. Press.

⁷ M. A. K. Halliday, Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. London: Edward Arnold, 1978. Pp. 256.

elementlar muhim rol o'ynaydi. Ular ma'no anglash, urg'u berish, e'tibor qaratish va hissiy o'zgarishlarni ifodalashda ishlatiladi. So'zlashuvchilar bir-birining fikrlarini to'xtatish yoki boshlashda intonatsiyadan foydalanadilar.

3. *Qisqa va oson tuzilgan jumlar.* Og'zaki nutq ko'pincha qisqa, oddiy va aniq tuzilgan jumalarni o'z ichiga oladi. Bu muloqotning samarali bo'lishini ta'minlash uchun zarur.

4. *Muloqotning kontekstual jihatlari.* Og'zaki diskursda so'zlashuvchilar orasidagi ijtimoiy, madaniy va maqsadli kontekstlar alohida ahamiyatga ega. Diskurs davomida bunday kontekstlar doirasida mos keladigan ifodalar, dialektlar, slenglar va boshqa tildagi xususiyatlar ishlatiladi.

5. *Tana tili va noverbal alomatlar.* Og'zaki diskursda so'zlashuvchilar nafaqat so'zlar, balki tana tili, yuz ifodalari va qo'l ishoralari orqali ham muloqot qilishadi. Bu alomatlar nutqning ma'nosini kuchaytiradi yoki izohlaydi.

6. *Interaktivlik va muloqotdagi o'zgarishlar.* Og'zaki diskursda so'zlashuvchilar o'rtasida o'zaro savollar, javoblar, to'xtatishlar va tuzatishlar tez-tez uchraydi. Nutq davomida muhokama, qarama-qarshilik yoki hamfikrlik paydo bo'lishi mumkin.

7. *Qisqartirishlar va alohida ifodalar.* Og'zaki nutqda so'zlar qisqartirilishi, umuman olganda oddiy va qisqa shakllarda ishlatilishi mumkin. Masalan, "yo'q" o'rniga "yo'" yoki "ha" o'rniga "ha-haa" kabi o'zgarishlar mumkin.

8. *Repetitivlik (takrorlash).* Og'zaki muloqotda ma'lum bir maqsadga erishish uchun so'zlar va ifodalar takrorlanishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, e'tiborni tortish, ma'lumotni aniqroq yetkazish yoki eslab qolishga yordam beradi.

9. *Fazoviy va muddatli aloqalar.* Og'zaki diskursda nutq qachon va qayerda yuzaga kelishi, so'zlashuvchilar o'rtasidagi masofa va vaqt juda muhim. Misol uchun, yuzma-yuz suhbatda ko'proq

ochiq va aniq ifodalar ishlatiladi, telefon orqali esa qisqaroq va tezkor javoblar bo'lishi mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Og'zaki diskursning ushbu xususiyatlari muloqotni samarali, dinamik va tezkor qiladi. Shuningdek, ular tilning funksional o'zgaruvchanligini ta'minlab, ijtimoiy va kommunikativ muhitga moslashish imkonini beradi.

Umuman olganda, ijtimoiy fanlar doirasida diskurs, asosan, shaxslarning og'zaki nutqlarini ifodalash uchun ishlatiladi, xususan, diskurs orqali nutq va muloqotga kirishgan kishilar hamda ularning nutqi orqali nima qilishayotgani tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Выготский, Л.С. Умственное развитие детей в процессе обучения. - Москва, Ленинград: Учпедгиз, 1935.
2. Grice, H. P. Logic and conversation. In P. Cole, & J. Morgan (Eds.), Syntax and semantics (pp. 41-58). - New York: Academic Press, 1975.
3. Erving Goffman. The Presentation of Self in Everyday Life. - Knopf Doubleday Publishing Group, 1959. - 272 p.
4. Deborah Tannen. You just don't understand: Women and men in conversation. - New York: William Morrow & Co., 1990. - Pp. 330.
5. William Labov. Sociolinguistic patterns. (Conduct and Communication, 4.) - Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
6. Chomsky N. *Aspects of the theory of syntax.* - M.I.T. Press, 1965.
7. Halliday M.A.K. Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. - London: Edward Arnold, 1978. - Pp. 256.

